



"OILA VA GENDER" ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/2 (11)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – psixologiya fanlari doktori, professor.

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna** – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – yuridik fanlari doktori, professor.

**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – tibbiyot fanlari nomzodi.

**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**ZIYAYEV Azamat Xamidovich** – tarix fanlari doktori, professor.

**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – psixologiya fanlari doktori.

**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Сайдова Галина Каримовна** – доктор экономических наук, профессор.

**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – доктор психологических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

**Бекмурадов Адхам Шарипович** – доктор экономических наук, профессор.

**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – доктор педагогических наук, профессор.

**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – доктор экономических наук, профессор.

**Сайдов Акmal Xolmatovich** – доктор юридических наук, профессор.

**Якубжанова Dilobar Batirovna** – доктор педагогических наук, доцент.

**Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna** – кандидат медицинских наук.

**Умирзаков Bakhodir Khamidovich** – доктор экономических наук, профессор.

**Зияев Azamat Khamidovich** – доктор исторических наук, профессор.

**Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli** – доктор психологических наук.

**Turakulov Ulugbek Holbutayevich** – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Saidova Galina Karimovna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich** – Doctor of Psychological sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Marufova Gulnora Makhmudovna** – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Saidov Akmal Kholmatovich** – Doctor of Juridical sciences, Professor.

**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

**Tashmukhamedova Diloram Ghafurjanovna** – Candidate of Medical sciences.

**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ziyayev Azamat Khamidovich** – Doctor of Historical sciences, Professor.

**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – Doctor of Psychological Sciences.

**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

### XALQARO TAHIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**

*Rossiya va Markaziy Osiyon*

*o'rganish markazi dotsenti*

*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*

*Javoharlal Neru universiteti,*

*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**

*Chelyabinsk davlat madaniyat*

*instituti,*

*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**

*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*

*London biznes va moliya maktabi,*

*Singapur*

### МЕЖДУНАРОДНАЯ

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**

*Доцент Центра исследований*

*России и Центральной Азии,*

*Школа международных*

*исследований,*

*Университет Джавахарлала Неру,*

*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина**

**Iosifovna,**

*Челябинский государственный*

*институт культуры,*

*доктор педагогических наук,*

*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**

*Руководитель Технологического*

*факультета*

*Лондонская школа бизнеса и*

*финансов, Сингапур*

### INTERNATIONAL EDITORIAL

### BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**

*Assistant Professor*

*Centre for Russian and Central Asian*

*Studies*

*School of International Studies*

*Jawaharlal Nehru University*

*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**

*Chelyabinsk State Institute of Culture*

*Doctor of Pedagogical Sciences,*

*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**

*Head, School of Technology*

*London School of Business and*

*Finance, Singapore*

*SOTSILOGIYA*

<b>Saydivalieva X.X., Kadirova T.J.</b> Mehnat munosabatlarida kamsitish holatlarining oldini olish va gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy huquqiy jihatlari .....	4
<b>Myсаева М.И.</b> Гендерные различия в диагностике расстройства аутистического спектра.....	12
<b>Inoyatova S.J.</b> Oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirishga oid xorij tajribasining o'ziga xos xususiyatlari .....	17
<b>Ilxamova Z.</b> O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroti .....	24
<b>Zokirov S., Xusanova S.</b> O'zbekistonda ta'lif davomiyligi: hududlar va jinslar bo'yicha farqlar, ularning sabablari.....	29

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Hojiyev R.B.</b> Oilaviy nizolarni bartaraf qilishda oilaviy mediatsiyaning roli (Turkiya tajribasi misolida).....	35
<b>Abduramanov X.X., Saxibov O.K., Rustamov J.I.</b> Oilaviy ajrimlarning farzand tarbiyasiga ijtimoiy-psixologik ta'siri .....	40
<b>Abdibositov A.</b> Huquqiy ong tushunchasining tarkibiy tahliliga oid ayrim fikr va mulohazalar .....	46
<b>Muhittdinova D.</b> Huquqiy madaniyat yetishmasligi sababli kelib chiqadigan muammolar va ularni bartaraf etish .....	51

*PSIXOLOGIYA*

<b>Yangiboyeva D.R.</b> Ko'p bolali oilalar submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari .....	56
<b>Xusanov S.</b> "Mehnat motivatsiyasi" tushunchasining ilmiy-nazariy o'r ganilishi .....	63
<b>Аскарова Г., Каримова Н.</b> Социально-психологические особенности копинг-поведения среди молодежи .....	68
<b>Nomozova R.O.</b> Ilm-fan sohasida gender tenglikni rivojlantirishning psixologik aspektlari .....	75
<b>Imonova M.B.</b> O'smir shaxsi shakllanishida sibling maqomining psixologik ta'siri.....	80
<b>G'ulomqodirov E.A.</b> Psixologik nazariyalarda oilaviy zo'ravonlik tushunchasining talqini .....	85

*PEDAGOGIKA*

<b>Qurbanova B.N.</b> Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning ijodkorligini shakllantirish .....	91
---	----

*DEMOGRAFIYA*

<b>Dusnayev Sh.E.</b> O'zbekiston aholisi soni va tarkibidagi dinamik o'zgarishlarning iqtisodiy-statistik tahlili .....	96
--	----

*ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR*

<b>Rabiiev B.B.</b> Ayollar uy xizmati migratsiyasini tartibga solish bo'yicha Filippin tajribasi.....	102
--	-----



**Abdibositov Abduqodir,**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

*Email: abduqodir.online@gmail.com*

## **HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINING TARKIBIY TAHLILIGA OID AYRIM FIKR VA MULOHAZALAR**

**Annotation.** Maqolada "Huquqiy ong" tushunchasining tarkibiy tahlili, "huquq" va "ong" tushunchalari mazmuni, ushbu tushunchalarning lingvistik, falsafiy va huquqiy tahlili, ularning "Huquqiy ong" iborasi tarkibidagi o'ziga xos o'rni, "huquq" tushunchasining asosi sifatida "haq", "haqiqat" so'zlarining o'rni yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** huquqiy ong, huquq, "huquq" tushunchasining lingvistik, falsafiy va huquqiy tahlili, ong, "ong" tushunchasining lingvistik, falsafiy va huquqiy tahlili, haq, haqiqat.

**Аннотация.** В статье освещается структурный анализ понятия "правосознание", содержание понятий "право" и "сознание", лингвистический, философский и правовой анализ этих понятий, их специфическое место в структуре словосочетания "правосознание", роль слов "истина (от арабского)", "истомина" как основы понятия "право".

**Ключевые слова:** правосознание, право, лингвистический, философский и правовой анализ понятия "право", сознание, лингвистический, философский и правовой анализ понятия "сознание",стина (от арабского).

**Annotation.** The article highlights the structural analysis of the concept of "legal consciousness", the content of the concepts of "right" and "consciousness", linguistic, philosophical and legal analysis of these concepts, their specific place in the structure of the word combination "legal consciousness", the role of the words "truth (from Arabic)", "istimina" as the basis of the concept of "right".

**Keywords:** legal consciousness, right, linguistic, philosophical and legal analysis of the concept of "right", consciousness, linguistic, philosophical and legal analysis of the concept of "consciousness", truth (from Arabic).

**Kirish.** Bugungi kunda jamiyatimizning K jadal rivojlanishi, fuqarolarimizda huquqiy tafakkurning tubdan o'zgarishi, yuridik faoliyatni amalga oshirish qadriyatlari, mazmuni va vositalaridagi o'zgarishlar sharoitida yuristlarning huquqiy ongini, ya'ni kasbiy-huquqiy ongini o'rganish muammosi dolzARB masalaga aylanmoqda.

Mamlakatimizda chinakam fuqarolik jamiyatni o'rnatalishida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish juda katta ahamiyatga ega. Bu borada davlat rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham o'z nutqlarida takror va takror

uqtirib kelmoqda: "Har bir fuqaro, har bir insono'z haq-huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarni huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi shart. Toki jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va mas'uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha so'zlarimiz, sa'y-harakatlarimiz besamar ketaveradi"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Каюмов Р.К., Мирхамидов М.М., Тўлаганов А.Т., Ҳусанов О.Т., Ҳотамов У.Ж. Ўзбекистон Республикаси

**Maqsad va uni asoslash.** Huquqiy ong va uning asosiy mazmuni, tuzilishi, rivojlanishi va funksiyalari huquqshunos olimlar tomonidan necha asrlar va davrlar mobaynida o‘rganib kelinayotganiga qaramasdan, ular bu sohada aniq to‘xtamga kela olganliklari yo‘q, shu sababli ham bu soha gumanitar, ijtimoiy, ayniqsa, huquqiy fanlarning dolzARB muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kasbiy-huquqiy ongning mazmuni va mohiyatini chuqurroq ochib berish uchun avval huquqiy ong deb atalmish ijtimoiy hodisaning o‘zagi bo‘lgan “huquq” va “ong” tushunchalarining tavsifini tahlil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, har bir so‘z birikmasidan tashkil topgan tushunchaning mazmuni uni tashkil etuvchi so‘zlarning mazmuniga bevosita bog‘liqdir.

Huquq va ong tushunchalari turli soha vakillari tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. “Huquq” tushunchasining yuridik mazmunini N.Saburov, Sh.Saydullayev, H.T.Odilqoriyev kabi huquqshunos olimlarning ilmiy ishlamalarida uchratishimiz mumkin. A.Madvaliyev, Z.M.Ma’rufov kabi tilshunos olimlar tomonidan e’lon qilingan adabiyotlarda esa uning lingistik mazmuni yoritilgan.

“Ong” tushunchasining falsafiy ma’nosini bilan G.Rasuleva, I.Mirzaqulov kabi olimlar tomonidan e’lon qilingan adabiyotlarda, lingistik tahlillarini esa A.Madvaliyev, Z.M.Ma’rufov kabi milliy tilshunos olimlarning hamda S.I.Ojegova, N.Y.Shvedova, J.E.Worcester kabi chet el tilshunos olimlarning e’lon qilingan adabiyotlarida uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari, “ong” tushunchasini tahlil etishda Sh.A.Saydullayev kabi huquqshunos olimlar ham o‘z hissalarini qo‘shgan.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** “Huquq” tushunchasiga ta’rif berishdan oldin “haq” so‘zining ma’nosini anglab olmog‘imiz lozim. Zero, “huquq” so‘zi haq so‘zining ko‘pligidir<sup>2</sup>.

Tilshunos olim Abduvahob Madvaliyev tahriri ostidagi O‘zbek tilining izohli lug‘atida kelib chiqishi arabcha bo‘lgan “haq” so‘zining 9 dan ortiq quyidagi ma’nolari keltirilgan:

- to‘g‘ri, rost, chin, haqqoniy;

Конституцияни ўрганиш курси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001. – Б. 9.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Тошкент, 2006-2008. – Б. 568.

- huquq;
- adolat;
- haqiqiy holat;
- haqiqat;
- shaxs bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llanib, haqiqatning shu so‘z bildirgan shaxs tomonida ekanini bildiradi;
- biror narsa, ish-harakat uchun qonuniy bo‘lgan, talab, tartib-qoidaga to‘g‘ri keladigan asos, erk-imkoniyat;
- ish, mehnat, xizmat evaziga to‘lanadigan, olinadigan pul yoki boshqa narsa;
- xudo, Olloh, tangri, parvardigor (xudoning sifatlaridan biri);
- biror narsaning yuz berishi, amalga oshuvini kutish, ilinjida bo‘lish holatini bildiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yuridik jihatdan “haq” so‘ziga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Haq – haqiqat, ya’ni muayyan ijtimoiy munosabatlar uchun asos bo‘la oladigan, talab, tartib-qoidaga to‘g‘ri keladigan asos, erk-imkoniyat.

Shu o‘rinda, haqiqat so‘ziga S.Razzoqov quyidagicha ta’rif beradi:

Haqiqat – obyektning biluvchi subyekt tomonidan adekvat aks ettirilishi, uning o‘z-o‘zicha, mavjudligiga ko‘ra, inson va uning ongidan tashqarida mustaqil mavjud holda ifodalanishi, hissiy, empirik tajriba, tushunchalar, g‘oyalari, hukmlari, nazariyalar, ta’limotlar va dunyoning bir butun manzarasining dialektik rivojlanishdagi obyekтив mazmunidir<sup>3</sup>. S.Razzoqovning ushbu ta’rifidagi “adekvat” so‘zi e’tiborimizni tortdi. “Adekvat” tushunchasi lotin tilidan olingan bo‘lib, u “tenglashgan, mos, aynan bir, o‘xshash” kabi ma’nolarni bildiradi. Ammo ushbu tushunchaning asl mazmunini bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning obyekтив mazmuniga to‘g‘ri keladigan, aniq va mos qilib olishdir<sup>4</sup>. Demak, S.Razzoqov “obyektning biluvchi subyekt tomonidan adekvat aks ettirilishi” jumlesi orqali “haqiqat bu isbot talab etilmaydigan voqelikning inson ongida hech qanday o‘zgartirishlarsiz, asl holatda aks etishi” degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Demak, “huquq” haq, ya’ni haqiqatlar tizimidir. Z.M.Ma’rufov tahriri ostida nashr qilingan

<sup>3</sup> Рассоков С. Фалсафа кискача изоҳли лугат. – Тошкент, 2004. – Б. 378.

<sup>4</sup> Adekvat so‘zining ma’nosini <https://uz.wikipedia.org/wiki/Adekvat>

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Huquq” so‘ziga quyidagicha ta’riflar berilgan:

- davlat hokimiysi tomonidan belgilanadigan va qo‘riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o‘zaro munosabatlari tartibga soladigan qonun-qoidalar, normalar majmuyi;
- kimsaga biror ish-harakat qilish uchun berilgan, davlat qonunlari va boshqa qonun-qarorlari bilan mustahkamlangan, kafolatlangan imkoniyat, erk, ixtiyor<sup>5</sup>.

Yuridik adabiyotlarda “huquq” tushunchasining bir qancha bir-biriga o‘xshash ma’nolarini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida chop etilgan “Davlat va huquq nazariyasi” nomli darslikda “huquq” tushunchasiga sof yuridik ma’noda ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi, davlat tomonidan o‘rnataladigan hamda ta’milanadigan va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy yuridik normalar tizimi deb ta’rif berilgan<sup>6</sup>.

Nurmat Saburov va Shahzod Saydullayevlar esa “huquq” tushunchasiga davlat tomonidan o‘rnataladigan yoki ma’qullanadigan, o‘zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, bajarilishi umummajburiy bo‘lgan yurish-turish qoidalari yig‘indisi deb ta’rif berishgan<sup>7</sup>.

Professor H.T.Odilqoriyevning umumiyligi tahriri ostida chop etilgan “Davlat va huquq nazariyasi” nomli darslikda “huquq” tushunchasiga davlat tomonidan o‘rnataladigan va qo‘riqlanadigan, mamlakat aholisining umumiyligi va shaxsiy manfaatlarni ifodalovchi hamda ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida amal qiluvchi umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi deb ta’rif berilgan<sup>8</sup>.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan “huquq” tushunchasi to‘g‘risidagi quyidagi xulosalarni bildiramiz:

*birinchidan*, huquq – haq, ya’ni haqiqatlar tizimidir;

<sup>5</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. – Москва, 1981. – Б. 714.

<sup>6</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси // Дарслик. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. – Б. 76.

<sup>7</sup> Сабуров Н., Сайдуллаев Ш. Давлат ва хуқуқ назарияси // Ўқув кўлланма. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Тошкент давлат юридик институти, 2011. – Б. 64.

<sup>8</sup> Давлат ва хуқуқ назарияси // Дарслик. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б. 185.

*ikkinchidan*, huquq – davlat hokimiysi tomonidan belgilanadi va qo‘riqlanadi, ayrim hollarda davlat tomonidan ma’qullanadi (xalqaro normalarni ratifikatsiya qilishga oid);

*uchinchidan*, huquq – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan;

*to‘rtinchidan*, huquq – o‘zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini ifodalaydi;

*beshinchidan*, huquq – umummajburiy;

*oltinchidan*, huquq – aholining umumiyligi va shaxsiy manfaatlarni ifodalovchi;

*yettinchidan*, huquq – xulq-atvor qoidalari tizimi.

Yuqoridagi olimlarning fikr va mulohazalari hamda shaxsiy tahlillarimizga tayangan holda “huquq” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berishni lozim topdik:

“Huquq – davlat tomonidan o‘rnataladigan yoki ma’qullanadigan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, o‘zida ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi, umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi”.

Huquqiy ong tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, uning asosiy qismi sifatidagi “ong” tushunchasiga to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Z.M.Ma’rufov tahriri ostida nashr qilingan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ong” so‘ziga quyidagicha ta’riflar berilgan:

- kishining fikrlash qobiliyati, aql, idrok;
- odamning yoki odamlar guruhining ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi va unga munosabati;
- voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o‘z ichiga olgan va ma’lum maqsadga yo‘nalgan holda aks etishi;
- belgili bir ijtimoiy sinf vakili bo‘lgan kishilarning psixologik, siyosiy va falsafiy nuqtayi nazarlari, diniy, badiiy qarashlari majmuyi, tizimi<sup>9</sup>.

Tilshunos olim Abduvahob Madvaliyev tahriri ostidagi O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa “ong”ning quyidagi mazmunlari keltirilgan:

- odam ruhiy faoliyatining oliy shakli, kishining fikrlash qobiliyati, aql, idrok;
- odamning yoki odamlar guruhining ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi va unga munosabati;
- voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o‘z ichiga olgan va ma’lum maqsadga yo‘nalgan holda aks etishi;

<sup>9</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. – Москва, 1981. – Б. 537.

- belgili bir ijtimoiy sinf vakili bo‘lgan kishilarning psixologik, siyosiy va falsafiy nuqtayi nazarlari, diniy, badiiy qarashlari majmuyi<sup>10</sup>.

Yuqoridagi ikki tilshunos olimning qaydlari bilan tanishar ekanmiz, ularning xulosalari deyarli bir xil ekanini ko‘rishimiz mumkin.

“Ong” so‘zining rus tilidagi mazmunini rus tilshunos olimlari S.I.Ojegova hamda N.Y.Shvedovalar tahriri ostidagi “Rus tilining izohli lug‘ati”dan bilib olishimiz mumkin. Ushbu lug‘atga, asosan, o‘rganilayotgan tushunchaning quyidagi ma’nolari keltirilgan:

- anglash;
- insonning haqiqatni fikr yuritish orqali anglash qobiliyati;
- insonning sog‘lom aql va idrokka ega bo‘lgan holati, ya’ni uning o‘z harakatlari va his-tuyg‘ularini anglay olish qobiliyati;
- fikr, tuyg‘u va biror narsani aniq tushunish<sup>11</sup>.

J.E.Worcester tahriri ostida chop etilgan “Ingliz tilining talaffuz va izohli lug‘ati”da “ong” tushunchasining quyidagi ingliz tilidagi ma’nolari keltirilgan:

- o‘z fikrlarini anglash;
- aqliy idrok orqali bilish<sup>12</sup>.

“Ong” tushunchasining mazmunini bir qancha milliy nashrlarda ham uchratish mumkin. A.Ibrohimov, H.Sultonov va N.Jo‘rayevlar hammuallifligidagi “Vatan tuyg‘usi” kitobida “ong” to‘g‘risida quyidagi satrlar keltirilgan:

“Odamning ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati uning ongida yuz beradi. Siyosiy ong, ijtimoiy ong iboralari ana shundan kelib chiqqandir. Voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o‘z ichiga olgan va albatta, ma’lum maqsadga yo‘nalgan holda aks etishi ongning zuhuridir. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, siyosiy, falsafiy nuqtayi nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham majmuyi hisoblanadi. Ijtimoiy ong deganda, ana shular nazarda tutiladi”<sup>13</sup>.

Sh.A.Saydullayev o‘z muallifligi ostida chop etilgan “Davlat va huquq nazariyasi” darsligida

ong faqat shaxsgagina xos bo‘lgan, miyaning til va nutq yordamida voqelik aksini umumlashtiradigan, maqsadga muvofiq, konstruktiv hamda ijodiy namoyon bo‘ladigan oliy funksiya ekanligi keltirilgan<sup>14</sup>.

Yana bir tadqiqotchi olimimiz K.Allaberganov ong xususida tadqiqotlarni o‘rganib quyidagi xulosalarni bildirgan:

- ong – bu voqelikni inson psixik olamida aks ettirishning eng yuqori shakli;
- ong – bu doimiy holatda faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan psixik jarayon;
- ong, o‘z navbatida, yagona, bo‘linmas ma’naviy shakllanish hamdir;
- ong – bu ham tafakkur uslubi va obyektiv borlikda mavjud bo‘lgan haqiqat bilan aloqalar tizimi hamdir<sup>15</sup>.

“Ong” tushunchasining mazmunini yoritishda uning falsafiy ma’nosi bilan ham tanishish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ong falsafadagi markaziy kategoriyalardan biri bo‘lib, ko‘p qirrali va murakkab bo‘lgani tufayli falsafa, psixologiya, psixiatriya, fiziologiya, kibernetika, informatika singari turli fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi<sup>16</sup>. “Falsafa” qisqacha izohli lug‘atida in’ikos nazariyasi nuqtayi nazaridan ong, inson ijtimoiy taraqqiyotida voqelikni ruhiy aks ettirishning oliy shakli ekanligi hamda u ruhiy holat bo‘lib, ruhiyat tushunchasi ong tushunchasiga qaraganda kengroq ekanligi belgilangan. Ushbu fikrlar davomida ong faqat insongagina xos bo‘lishi hamda ong yangi tug‘ilgan chaqaloqda, ruhiy kasallarda shakllanmagan bo‘lishi bildirilgan.

Ong tufayli bilish va hodisalarini baholash munosabatlari amalga oshiriladi va bundan ongning asosiy bilish va his-hayajon uyg‘otuvchilik vazifalari kelib chiqadi. Ong mazmunini, avvalo, inson tajribasi davomida hamisha tasdiqlanib va rivojlanib boruvchi bilimlar tizimi tashkil etadi. Lekin ong bilan bilim bir narsa emas. Agar bilim inson tajribasi tasdig‘idan o‘tgan voqelik in’ikosi bo‘lsa, ong, albatta, voqelikning so‘zsiz isbotlangan,

<sup>10</sup> Ўзбек тилининг изохли лугати. – Тошкент, 2006-2008. – Б. 568.

<sup>11</sup> Ожегов Ш.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – Россия СССР: 1960.

<sup>12</sup> Worcester J.E. Pronouncing and explanatory dictionary of the english language with pronouncing vocabularies of classical and scripture proper names. – Boston, 1831. – P. 70.

<sup>13</sup> Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996. Б. 30-31.

<sup>14</sup> Сайдуллаев Ш.А. Давлат ва хукуқ назарияси // Дарслерик. – Тошкент, 2018. – Б. 93.

<sup>15</sup> Allaberganov Karimbergan. Huquqiy ong tushunchasini o‘rganishning nazariy jihatlari // Academic research in educational sciences. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/huquqiy-ong-tushunchasini-o-rganishning-nazariy-jihatlar> (дата обращения: 27.06.2024).

<sup>16</sup> Расулема Г., Мирзакулов И. Фалсафа кискача изохли лугат. – Тошкент, 2004. – Б. 284.

haqiqiy in’ikosi bo’lmaydi. Chunki ong tarkibida taxmin, adashish, aldanish hollari ham uchraydi<sup>17</sup>.

Ong – insonda aloqlar, munosabatlar, obyektiv dunyo qonuniyatlari to‘g‘risida umumiy bilimlar shakllanishiga asos bo‘ladi. Insonga maqsad va rejalar tuzishi, uning tabiat va ijtimoiy muhitdagi faoliyatini boshqarish undagi borliqqa nisbatan emotSIONAL (hissiy), ratsional (aqliy) va amaliy munosabatlarni boshqarish hamda nazorat qilishda yordam beradi.

Demak, “ong” o‘z-o‘ziga va jamiyat qadriyatlariga munosabatni qamrab olib, shaxsning o‘zini va uni o‘rab turgan tevarak-atrofni fikr yuritish orqali anglash qobiliyatidir.

**Yakuniy qism.** Yuqoridagi “huquq” va “ong” tushunchalariga oid ta’riflar, tushuntirishlar, ilmiy

fikr va mulohazalar ushbu tushunchalarning mohiyati va mazmunini chuqur anglash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu fikr va mulohazalardan kelib chiqib huquqiy ongga quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin:

Huquqiy ong shaxsning jamiyatda belgilangan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy xulq-atvor qoidalarini fikr yuritish orqali anglash qobiliyatidir.

Ammo ushbu mulohazalar ikkala tushunchalarning mazmunini alohida-alohida tushunish imkonini beradi, xolos. “Huquqiy ong” tushunchasi ushbu ikki so‘zning so‘z birikmasidan iborat bo‘lsa-da, uning ma’nosи ancha keng va uning mazmunini anglash uchun bu tushunchani chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

<sup>17</sup> Ong <http://forum.oyina.uz/kiril/teahause/2159>

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қаюмов Р.К., Мирхамидов М.М., Тўллаганов А.Т., Хусанов О.Т., Ҳотамов У.Ж. Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганиш курси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2001, – Б. 9.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006-2008. – Б. 568.
3. Раззоқов С. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2004. – Б. 378.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Adekvat>
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва, 1981. – Б. 714.
6. Давлат ва хуқуқ назарияси // Дарслик. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2018. – Б. 76.
7. Сабуров Н., Сайдуллаев Ш. Давлат ва хуқуқ назарияси // Ўқув қўлланма. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Тошкент давлат юридик институти, 2011. – Б. 64.
8. Давлат ва хуқуқ назарияси // Дарслик. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2009. – Б. 185.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: 2006-2008. – Б. 568.
10. Ожегов Ш.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – Россия СССР, 1960.
11. Worcester J.E. Pronouncing and explanatory dictionary of the English language with pronouncing vocabularies of classical and scripture proper names. – Boston, 1831. – Р. 70.
12. Иброҳимов А., Султонов Ҳ., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Т.: “Ўзбекистон”, 1996, – Б. 30-31.
13. Сайдуллаев Ш.А. Давлат ва хуқуқ назарияси // Дарслик. – Тошкент, 2018. – Б. 93.
14. Расуleva Г., Мирзакулов И. Фалсафа қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2004. – Б. 284.
15. Allaberganov Karimbergan. Huquqiy ong tushunchasini o‘rganishning nazariy jihatlari // Academic research in educational sciences. 2020. – №4. URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/huquqiy-ong-tushunchasini-organi>shning-nazariy-jihatlar(дата обращения:27.06.2024)
16. <http://forum.oyina.uz/kiril/teahause/2159>

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»  
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

## **MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA**

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии  
Society, Gender and Family in Central Asia*

**x a l q a r o i l m i y j u r n a l i**

*международный научный журнал  
international academic journal*

**2024/2 (10)**

**DOI: 26739/2118-9998**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**  
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.,**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanylгanda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.